O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI"
mavzusidagi xalqaro konfrensiya

"ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA, TIL KORPUSLARI VA TURKIY TILLAR PLATFORMALARINI YARATISH MUAMMOLARI"
nomdagi sho'ba materiallari

(2021-yil 18-oktabr)

Toshkent – 2021

"O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" nomli amaliy loyihasi xususida

Ushbu ikki loyiha ham o'zbek tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini oshirish; o'zbek tili ta'limini takomillashtirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yuksaltirish, mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish; uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari va elektron dasturlarini ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish kabi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Globallashuv tufayli axborot almashinuvi shu qadar tezlashdiki, endi o'qituvchi sergakroq bo'lmasa, o'quvchidan orqada qolib ketishi mumkin. Ilgari o'quvchilar darslik va o'qituvchi bergan ma'lumotlar bilan kifoyalanar edi, bugun bu ma'lumotlar yetarli bo'lmay qoldi. Shu ma'noda, yaratilayotgan milliy til korpusi, xususan, ta'limiy korpus mamlakatda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun katta qulaylikdir.

O'qituvchi uchun korpus tengsiz xazina, undan har bir o'quv mashg'uloti uchun serqirra va mazmunli o'quv materiali tayyorlash mumkin bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, korpusda xilma-xil matnlar jamlanib, undan o'qituvchi istalgan shaklda foydalana oladi. Masalan, o'qituvchi topshiriqni tayyorlash uchun faqat badiiy adabiyot parchasidan (yoki nobadiiy matndan: sport, avtobiografiya yoki shunchaki ma'lum ijodkor ijodi bilan chegaralanmoqchi) foydalanmoqchi. Unda "Mening korpusim" ilovasi orqali o'ziga kerakli matnni ajratib olish imkoni mavjud, ya'ni misollar sirasini chegaralaydi. Korpus turli janr va uslubdagi matnlarni qamrab olganligi sababli har qanday talabni qondirish imkoniga ega. Misol uchun, jurnalistika fakulteti talabalari uchun yozilgan darslikda publitsistik matnlar ancha eskirgan. Har kuni boyitilib boradigan korpusdan yangi misollarni olish, uni talabaga taqdim etish yoki talabaga ham shunday topshiriq berish, albatta, ta'limni bugungi hayotga yaqinlashtiradi. Ko'pincha qayta-qayta nashr

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti

**"O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI"**
Xalqaro konferensiya

**Vol. 1
№. 01 (2021)**

etilgan darslikda misollar eskiligicha qolib ketadi va axborot bilan shiddatli yangilanib borayotgan bugungi kun uchun mavzu eskiradi, talaba bilimni davr bilan hamohang o‘zlashtirmaydi. Ular ta'lim jarayonida so‘zning nozik qirrasini o‘rganish, uni nutqida qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishda nimaga tayanadi? XX asr boshi yoki o‘rtasida yozilgan asar bilan ishlash jarayoni unga hozirgi adabiy til uslubini shakllantirish uchun yetarli emas. Bugun filolog yoki jurnalist bo‘lib yetishayotgan mutaxassis tilimizning barcha nozik qirralarini his etishi uchun faqat eski − 20-30 yil oldingi matn namunasi yetarli emas, bugun yozilgan barcha soha, uslub va janrdagi asarlar bilan ishlashi lozim, shundagina ta'lim ijtimoiy buyurtmani bajargan hisoblanadi. Qaysi fanlar, uning aynan qaysi bo‘limida korpusdan qanday foydalanish mumkinligini aniq misollarda ko‘rib o‘tamiz.

Til korpusidan o‘qituvchi va maktab o‘quvchisi ham ancha unumli foydalanishi mumkin. Chunki faqat korpus orqali juda osonlik bilan kam ishlatiladigan so‘z, ibora va birikmani topish, qo‘llanishi va yozilishi (orfografiyasi)ni o‘rganish mumkin. Ta'kidlash joizki, til korpusida til grammatika va darslik muallifi tavsiflanganidek emas, balki jamiyatda qanday yashasa va ishlasa, shunday aks etadi. Bu esa o‘quvchini o‘zini o‘rab turgan muhit − umumxalq tili va adabiy tilni o‘rganishda eng sermahsul vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilining ta'limiy korpusi tilning lingvodidaktika va lingvistikada ma'lumotlarni markazlashtirish, qayta ishlash imkoniyati hamda korpusdan foydalanish ahamiyatini belgilaydi. O‘zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish xorij tajribalaridan kelib chiqqan holda **uch bosqichda** amalga oshiriladi. Jumladan: **birinchi bosqichda** ma'lumotlar elektron kutubxona shaklida, **ikkinchi bosqichda** matnni qayta ishlash shaklida, **uchinchi bosqichda** esa hajman katta, ammo sodda tegli korpuslar yaratish rejalashtirilgan. Ta'limiy korpusning loyihalash va tuzish texnologik jarayonlari o‘rganilib, tegning korpusda matnni qayta ishlashni belgilab berishi, teg so‘z shakllarning grammatik belgilarini ko‘rsatishi va korpus menejerining qidiruv, saralash, filtrlash vazifasi va uning BONITO, XAIRA, SARA, SQR, DDS va boshqa turlarida ish olib borish nazarda tutilgan. Ta'limiy korpusni yaratishda o‘zbek tilining ilmiy, amaliy maqsad va vazifalari, milliy, parallel, multimodal korpuslardan farqi, ta'limiy korpusining tuzilishi, tarkibi, hosilasi xorij tajribasi asos sifatida e'tiborga olinadi.

"O‘zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" loyihasi doirasida quyidagi tarkibdan iborat ta'limiy korpusni yaratishga tegishli lingvodidaktik va multimedia mahsulotlarini yaratish maqsad qilib qo‘yildi:

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat oʻzbek tili
va adabiyoti universiteti

**"OʻZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI"**
Xalqaro konferensiya

**Vol. 1
№. 01 (2021)**

1. Oʻzbek tilining izohli, imloviy, ideografik, orfoepik, omonim, sinonim, antonim, darajalanish, paronim va iboralar elektron lugʻatlari bazasi taʼlimiy korpusga joylandi, endilikda uning mobil ilovasi tayyorlanadi.

2. Taʼlimiy korpusning didaktik ahamiyatga ega boʻlgan matn (asar)lar, ular asosida ona tilidan foydalanish imkoniyatini oshiruvchi topshiriqlar majmuasi dasturlashtiriladi, audio/video materiallar dasturga qoʻshiladi, ishlov beriladi.

3. Oʻzbek tili taʼlimiy korpusiga multimedia materiallari oʻrnatiladi va uning mobil ilovasi, on-line/off-line varianti ishlanadi.

"Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusini yaratish" nomli amaliy loyihadan kutilayotgan natijalar:

– taʼlim boshqa tilda olib boriladigan oliy taʼlim muassasasi hamda xorijiy taʼlim muassasalaridagi hamkor universitetlar uchun innovatsion metodik qoʻllanma;

‒ oliy taʼlimning qardosh tillarni oʻrganish sohasini oʻrganuvchilar, xorijlik talabalar uchun oʻqish savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlar toʻplami; taʼlimiy korpusda yaratilgan ogʻzaki, yozma yodgorliklar, milliy, madaniy meros namunalari elektron koʻrinishda Internet tarmogʻidan joy oladi;

‒ oʻzbek tilining taʼlimiy korpusi tabiiy (real) tilning elektron shakldagi, qidiruv dasturiga joylashtirilgan matnlar yigʻindisi; bir marta tuzilib, mukammal teglangan korpus lingvistik tadqiqotlar samaradorligini taʼminlashda barqaror lingvistik baza vazifasini bajaradi;

‒ taʼlimiy korpus elektron kutubxona, lugʻat, grammatikalar yaratishga asos boʻladi. U keng koʻlamli boʻlganligi uchun maʼlumotning oʻziga xosligini kafolatlab, til hodisalarining barcha qirralarini toʻliq namoyish etishni taʼminlaydi;

‒ turli maʼlumotlar tilning taʼlimiy korpusida oʻzining tabiiy kontekstual shaklida joylashadi, bu esa ularni har tomonlama, chuqur, obʼektiv oʻrganishga asos boʻladi;

‒ taʼlimiy korpus – tilni tadqiq etish (soʻzning oʻzgarishi, istorizm, neologizmlarning vujudga kelishi, maʼno kengayishi, torayishi, yangi frazeologizmlarning paydo boʻlishini kuzatish), til oʻrganish, lugʻat tuzishda eng zamonaviy, keng imkoniyatli dasturlashtirishga xizmat qiladi.

Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusini yaratish xorijiy tajribalardan kelib chiqib, bosqichma-bosqich maʼlumotlar shakllantirilishiga qaratilgan va oʻzbek adabiy tilining bugungi soʻzligini qamrab olgan elektron darslik, koʻp tilli soʻzlashgichlar va oʻzbek tilining boshqa tillarda ekvivalenti boʻlmagan, tarjima qilinmaydigan leksik birliklari – milliy-madaniy soʻzlarning izohi berilgan glossariy, oʻzbekcha toʻgʻri talaffuz koʻnikmalarini shakllantirishga qaratilgan audio va videomateriallar

hamda mobil ilova qamrab olingan multimedia mahsulotlari majmuasini yaratish ko'zda tutilgan. Bu esa respublikamizning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan ilmiy va texnologik zaxiralarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Loyiha asosida yaratiladigan mahsulotlar xorijiy universitetlarda, til markazlari, elchixonalar qoshida tashkil etilgan kurslar tinglovchilariga o'zbek tilini tizimli ravishda o'rganishga shart-sharoit yaratadi. Shuningdek, loyiha mahsulotlari xorijdagi hamkorlik qilinayotgan oliy ta'lim muassasalariga, xorij elchixonalari tasarrufidagi markazlarga, xorijda o'zbek tili sohasida ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislarga ham taqdim qilinishi mumkin.

Ushbu loyihaning amalga oshishi xorijdagi ta'lim muassasalarini o'zbek tilining ta'limiy korpusi bo'yicha o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlanishiga imkon beradi.

Laylo Raupova, f.f.d. professor
Nozliya Normuradova, f.f.d. (DSc)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d. professor
Botir Elov, t.f.f.d. (PhD)
Manzura Abjalova, f.f.f.d. (PhD)

Creation of educational corpus of Uzbek language with regard to practical project

Both projects are aimed at enhancing the prestige of Uzbek language in the social life of our country and internationally, improving the education of Uzbek language, raising the prestige of the Uzbek language as the state language, creating wide range of opportunities for the development of the languages of all nationalities and ethnic groups living in the country, creating favorable conditions for them to learn the state language, to determine the prospects of its relations with other languages as well as they serve to develop and widely distribute Uzbek language textbooks and electronic programs for compatriots living abroad and foreigners wishing to learn Uzbek language.

Due to globalization, the exchange of information has accelerated so much that if a teacher is not more vigilant, he or she may lag behind the student. In the past, students were content with textbooks and teacher information, but today that information is not enough. In this sense, the creation of a national language corps, in particular, the educational corps, is a great opportunity for further development of the education system in the country.

For the teacher, the corps is an incomparable treasure, from which it is possible to prepare a diverse and meaningful teaching material for each lesson. As we mentioned above, the corpus contains a variety of texts that the teacher can use in any form. For example, a teacher may want to use only a piece of fiction (or a non-fiction text: sports, an autobiography, or simply limited to the work of a particular artist) to prepare the assignment. It allows you to select the text you want by using "My corpus" app, which limits the number of examples. The corpus is able to meet any demand as it covers texts of different genres and styles. For example, in a textbook written for journalism students, journalistic texts are outdated. Taking new examples from the corps, which is enriched every day, presenting them to the student, or giving the same assignment to the student, will definitely bring education closer to today's life. In a textbook that is often reprinted, the examples become outdated and the topic becomes obsolete for today, which is rapidly updated with information, and the student does not acquire knowledge with time at the same time. What do they rely on learning basic points

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti

"O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI"
Xalqaro konferensiya

Vol. 1
№. 01 (2021)

of the word in the learning process and developing the ability to use it in speech? The process of working with a work written in the early or mid-twentieth century is not enough for this to form a modern literary language style. In order for a philologist or journalist to feel all the subtleties of our language, it is not enough to work with works of all fields, styles and genres written today, so that education fulfills the social order. Let's take a look at some of the disciplines and how to use the corpus in specific areas.

The language corpus can be used more effectively by both teachers and students. The reason is that it is possible to easily find out word, phrase and combinations that are rarely utilized and as well as they learn the usage and written forms of language elements. It should be noted that language reflects on how it works and lives instead of being described by the author's textbook and grammar. This is the most productive tool for the student to learn the environment - the vernacular and literary language.

The educational corpus of the Uzbek language determines the importance of centralization, processing and use of the corpus in linguistics, didactics and linguistics. The creation of the educational corps of the Uzbek language will be carried out in three stages, based on foreign experience. In the first stage, the data will be in the form of an electronic library, in the second stage will be in the form of text processing, and in the third stage will be in the form of large but simple tags. The technological processes of design and construction of the educational building are studied, the tag determines the processing of text in the body, the tag shows the grammatical features of word forms and the task of the body manager search, sorting, filtering and its BONITO, XAIRA, SARA, SQR, DDS types. In creating the educational corps, the scientific, practical goals and objectives of the Uzbek language, the differences from the national, parallel, multimodal corps, the structure, composition, product of the educational corps, foreign experience are taken into account.

In the framework of the project named "Creation of the educational corps of Uzbek language" the goal is to create linguodidactical and multimedia products related to the creation of the educational corps consisting of the followings:

1. The database of electronic dictionaries of Uzbek commentary, spelling, ideographic, orphoepic, homonymous, synonymous, antonymous, hierarchical, paronymic and phrases has been placed in the educational corpus, and now its mobile application is being prepared.

2. Texts of didactic significance of the educational corps, on the basis of which a set of tasks to increase the use of the native language is programmed, audio / video materials are added to the program and consolidated.

3. Multimedia materials will be installed in the Uzbek language educational corpus and its mobile application, online/offline version will be developed.

Expected results of the practical project "Creation of the educational corps of Uzbek language"

- Innovative methodological manual for higher education institutions with other languages of instruction and partner universities in foreign educational institutions;

- A set of tasks to develop reading literacy for foreign students studying higher education in the field of fraternal languages;

- Oral, written monuments, samples of national and cultural heritage created in the educational corpus are available in electronic form on the Internet;

- The educational corpus of the Uzbek language is a set of texts of the natural (real) language in electronic form, placed in the search program; Once formed, the perfectly sealed corpus serves as a stable linguistic base to ensure the effectiveness of linguistic research;

- The educational corpus will be the basis for the creation of an electronic library, dictionary, grammar. Because it is comprehensive, it ensures the uniqueness of information and provides a complete representation of all aspects of linguistic phenomena;

- Various information is located in the educational corpus of the language in its natural contextual form, which is the basis for their comprehensive, objective study;

- Educational corpus serves to study language (word change, historism, the emergence of neologisms, the expansion of meaning, narrowing, the emergence of new phraseology), to compile the most modern dictionary and to programm different options;

The creation of the educational corps of the Uzbek language is aimed at the gradual formation of data based on foreign experience and includes an electronic textbook, multilingual speakers and other Uzbek language. This will contribute to the formation of scientific and technological resources that will ensure the economic growth and social development of the republic.

The products created on the basis of the project will allow students of courses organized at foreign universities, language centers, embassies to learn the Uzbek language in a systematic way. The project products can also be presented to partner universities abroad, centers run by foreign embassies, and specialists conducting research in the field of Uzbek language abroad.

The implementation of this project will provide educational institutions of foreign languages with educational and methodological support in the educational corps of Uzbek language.

Doctor of philology, professor **Laylo Raupova,**
Doctor of philology (DSc) **Nozliya Normuradova**
Doctor of philology, professor **Baxtiyor Mengliyev**
Associate professor, PhD **Botir Elov**
Associate professor, PhD **Manzura Abjalova**